

So'zboshi

1966 yil aprelKj oyining oxirlarida Toshkentda mashhur va mash'um zilzila yuz berdi. Bu voqeadan bir hafta o'tar-o'tmas men Suriya Arab jumhuriyatining bosh kenti hisoblangan Damashqqa ishga ketdim. Oradan bir yarim-ikki oy ham o'tmagan edi, Damashqdagi uyimga bir qorachadan kelgan, o'rta bo'lyi, o'ziga yarashgan mo'ylabi ham bor bir kishi tashrif buyurdi. Ko'rinishidan u xuddi suvratini ko'rganim Abdulla Qodiriya o'xshardi. Bu kishi o'zbekchalab mening ismi sharifimni so'radi. Biz ko'rishdik, men o'zimni tanishtirdim, ichkari kirdik.

- Men Jo'ra qori bo'laman, ba'zan yozuvlarda Surgun degan ot ham qo'shib aytiladi, taxallusim Bo'tako'z. Mamlakatdan uzoqda - surgunda yurgundayman, ba'zida shunday atash bilan o'zimni ovutgan, o'zimga tasalli bergan bo'laman. Shu yili aprelKj oyida Do'stlik jamiyatining da'vati bilan mamlakatga borgandim. (Xorijdagi hamshaharlarimiz "O'zbekiston" nomi o'rniga ko'pincha "mamlakat" yoki "vatan" so'zini ishlatadilar). Esimni taniganimdan beri orzu qilganim - vatanni ko'rishga muyassar bo'lish edi, bir hafta ham o'tmasdanoq o'sha mudhish zilzila yuz bersa bo'ladimi, yopiray, meni ajal quvib kelgan ekan, shu yerda o'lar ekanman-da, degan xayolga ham bordim. Yo'q, xudoga shukr, kechmish bo'ldi (ya'ni o'tib ketdi). O'sha yerda do'stlaringiz bir narsani sizdan hikoya qilishdi, so'ng janobingiz ismi-shariflari zikr qilingan chog'da suhbatga chorlash uchun sizga qo'ng'irok qilishsa, allaqachon bu tomonlarga ravona bo'lgan ekansiz. Shu bilan men mamlakatdan chiqib Istanbulga keldim, u yerdan bu tomonlarga o'tdim, keyin Urdunga (ya'ni Iordaniyaga) o'taman.

- Buni bir mutolaa qiling, sizga sovg'a, - deb bir kitob berdi. Kitobga qaragam, Buxoro amiri - Olimxon qalamiga mansub, mehmonga minnatdorchilik bildirdim. Kitob forsiyda yozilgan, G'arbda chop etilgan edi. Men kitobni mutolaa qilib, yurtga qaytganda o'zbekchaga ag'dararman, degan xayolga keldim. Mana, oradan chamasi yigirma besh yilcha vaqt o'tdi. Orziqib kutilgan damlar keldi. Bu chog'lar oshkoralik deb nom oldi. Bor haqiqat asta-sekin qalqib yuzaga chiqa boshlayotir. Shunday mulohazalar andishasida nihoyat o'sha kitobning forsiydan qilgan tarjimasini hurmatli o'quvchilar e'tiboriga havola etayotirman. Muallif fikrini yaxshi ifodalay oldimmi - yo'qmi, bu muhtaram kitobxonlar hukmiga havola. Mabodo ba'zi iboralarda fikr yaxshi ifodalanmagan bo'lsa, o'tib ketgan kamchilik uchun kitobxondan oldindan uzr so'rayman. Mabodo ular o'z mulohazalarini menga yozib yo matbuot orqali bildirishsa, mulohaza otiga minib maqsad sari o'tlanishimiz turgan gap.

Risolani tarjima qilishda iloji boricha muallif ruhi, uslubi, hatto o'sha davrda ishlatilgan ma'muriy bo'linishlar nomi (chunonchi, tuman, bekklik kabilar)ni saqlashga harakat qilindi. O'sha davrda Buxoro davlati yigirma sakkiz bekklikka bo'lingan. Chunonchi, hozirgi Nurota, Qorako'l, Chorjo'y, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Denov, Yakkabog' kabi joylarning har biri bekklikdan iborat bo'lgan. Bekklik bizning hozirgi iste'molimizda rayonga to'g'ri keladi, shu bilan birga "tuman" gushunchasi ham bunga to'g'ri kelganday bo'layapti. Chuponchi, G'ijduvon tumani, Vobkent tumani, La'laka tumani. Kitobda Nurota esa viloyat sifatida bitiladi.

Amir Olimxonning yozishicha, o'sha davrda Buxoro davlatiga qarashli yerlar 225000 kvadrat kilometr bo'lgan, bu esa taxminan Italiya maydoni bilan teng deganidir. Uning yozishicha, Buxoro aholisi asosan o'zbek, turkman, qirg'iz, kozoq, tojik, yahudiy va arablardan iborat edi. Bundan ko'rinadiki, Buxoro davlati ko'pmillatli mamlakat bo'lgan, unda O'rta Osiyo xalqlarining barcha vakillari yashagan. Olimxon bu yerlarda yashovchi yahudiy va arablarni kitobiga bitishni ham unutmagan.

Amir Olimxon yozadi: "Buxoro xonlari butunlay mang'itlarning o'zbek toifasidan bo'lgan. Buxoro podshohlari mo'g'il odatlariga ko'ra to'shakcha (u oq kigizdap tayyorlangan - A. I.) ustiga tabarrukona o'tqazilib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar uni yerdan ko'taradilar". Turkiy podshohlarni ok kigizga solib ko'tarish qadim-qadimdan qolgan an'ana bo'lgan.

Bu gapda keltirilgan "mo'g'il" so'zi aslida turkiy qabilalardan birining nomi, u "mongol" emas. "Mo'g'il" bilan "mongol" tomomila boshka-boshka xalq. Shu jihatdan Hindistonda Bobur tuzgan imperiya ba'zan yanglish ishlatilib kelayotgan "Mongol" emas, balki "Mo'g'il imperiyasi"dir. Bunga Sayyid Olimxon bitgan satrlar ham guvohlik beradi. Olimxon yozadi: "Buxoro Markaziy Osiyo mamlakatlarining eng qadimgilaridan biri bo'lib, bunda navbatma-navbat shahzodalar saltanat qurganlar... So'nggi somoniy podshohlarining vafotidan so'ng (1005) Buxoro ikki marta turk va saljuqlar sulolasining qo'lga o'tdi. Undan so'ng Chingizxon va Temur, keyin shayboniylar, ashtarxoniylar sulolasi, o'zbek - mang'itlar Buxoroda hukm surdilar, Mang'it toifasi 1783 yildan to 1920 yilgacha Buxoroda saltanat surdilar".

Mana bu so'zlar tariximizni tuzukroq tushunishga, yanada chukurroq bilishga yordam beradi.

Buxorodan xorijga chiqariladigan mahsulotlardan tashqari ot ham eksport qilingan. "Buxoro otlari, - deydi muallif, xususan, qorabayir navi 1914 yilgi urushda ahamiyat qozonib, yaxshiligini isbotlaydi. Buxoro amiri kanchadan-qancha ming bosh otni Rusiya davlatiga berdi".

Shu bilan birga amir esdaliklarida o'sha davrda Rusiya bilan Buxoro o'rtasida bo'lgan savdo miqyosi haqida yoziladi:

"BolKjsheviklar inqilobidan oldin Buxoro savdosi faqat Rusiyaning o'zi bilan ikki yuz ellik million frankka yetar edi. Lekin baxtga qarshi yuklarni eltish vositalarining yo'qligi savdo ishining rivojlanishiga katta to'sqinlik qildi. Vaholanki, qanchadan-qancha temir yo'l vositalari mamlakatning boshidan oxirigacha cho'zilgan edi".

Amir Olimxon o'z davrida birmuncha madaniy qurilishlar qiladi, madrasa, masjid, ko'prik qurdiradi. "Buxoro minorasining past tomonida, - deydi muallif, - O'z nomimdan Dorul-ulum bo'lgan bir madrasa qurdirim; turli ilmlardan dars beruvchi muallimlar tayin etdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajati, maosh va kiyim-kechagi ham o'z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir ham tayin etdim; ularning yemak-ichmak, maosh va kiyim-kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkazdirardim".

Amir qurdirgan bu o'quv dargohi misoli hozirgi internat maktabi yo texnikumiga to'g'ri keladigan bir bilimgo'h desa ham bo'ladi. Bu esa o'sha davr saviyasidan turib qaralsa, albatta, juda katta voqea bo'lgan.

Qolgan gaplarni o'quvchining o'zi esdaliklardan o'qib olishi mumkin.

Abdusodiq IRISOV.

Rahmdil va Mehribon Alloh ismi bilan

Allohgga maqto'vlar, olamlar Rabbi va uning elchisi Muhammadga va uning oilasiga va barcha do'stlariga pokliklar va salomlar bo'lsin.

Ammo ba'd bilim egalarining vijdoni va xotir egalarining oldida yashirin qolmasinki, men tag-tugli Buxoroyi sharif xalqining fidoyisi Sayyid Amir Olimxon - Buxoro mulkining hukmroni edim.

O'z ahvolim va boshdan kechirganlarimni yoshlik chog'imdan olib borilgan to Buxoro poytaxtida saltanat uchun bolKjsheviklar bilan olib borilgan janglarda bo'lib, o'zimning Qobul dorussaltanasiga ko'chishim voqealarini tahrir ipiga tizib ushbuda bayon qildim, unga "Tarixi huzni milali Buxoro" ("Buxoro xalqining hasrati tarixi") deb nom ko'ydim, tokim o'quvchilar va unga ko'zi

tushgan zotlar bu faqirning bayon qilgan hollaridan va Buhoro saltanati poytaxti va unga taalluqli bo'lgan ma'lumotga ega bo'lsalar va BolKjsheviklar bilan bo'lgan muhobaba va Afg'onistonga ko'chishim sabablarini mutolaa qilib, unga insof nazari bilan boqsalar. Endi til nutqini bayon etuvchi to'ti bo'lmish - qalamni tilga kiritib, ahvol bayonini ushbu bitikda tarannum etadigan bo'lsam, shundayki, bu banda[1] dargohi oliy Sayyid Amir Abdulahadxon o'g'li Sayyid Olimxon dor-ul-foxira bo'lmish Buxoroyi sharif hukmdoridurman. Men hazrati padari buzrukvorim saltanati qaror topgan davrda diyonat ilmi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlardan tahsil qilganimdan keyin saltanat va mamlakatni idora qilish konunlarini egallash maqsadida rus ulug'larining sahovatidan foydalandim. Shunda o'n uch yoshligimda milodiy yilning ming sakkiz yuz to'qson uchida buyuk shahanshoh bo'lmish padari buzrukvorim hazratlari amru farmonlari bilan bir necha mo"tabar namakxo'r-yaqin do'stlar hamrohligida Peterburgga borishga azm qildim.

Tartib-qoida yuzasidan u yer maktablarida yetti yil o'qitilar edi. Binobarin, padari buzrukvorim istagiga ko'ra ta'limotni tezlashtirish maqsadida o'qish muddati uch yil deb karor qilindi. Bu uch yil orasida yozlari maktablar yopilgan kezlari Buxoroga, padarim xizmatiga kelib-ketib turardim. Shunday qilib, men uch yil davomida ta'lim olib, mamlakat tartib qoidalarini biladigan darajada bilim hosil qildim, o'qishlarni tugatib, imtihon topshirdim.

Rus davlati ulug'lari meni Buxoro davlati valiahdligiga mansub bo'lganligim uchun Buxoroga qaytarishdi. Shu bilan men milodiy yilning 1896 yilida Peterburgdan Buxoroyi sharifga, zoti shahona Padari buzrukvorim hazratlari dargohlariga qaytdim.

Shunday qilib, men qiblagohim qo'llarini o'pib, doim u kishi bilan birga bo'lishga musharraf bo'ldim. Padari buzrukvorim meni ikki yil davomida o'z xizmatlarida hamrikob qilib yonlarida olib yurdilar. Men qo'l ostimda bo'lgan muqaddas vatanning ichki ahvollari haqida ba'zi bir ta'limotlarni u kishining muborak tillaridan eshitib turgandim; bulardan men ko'p foydalar ko'rdim. So'ng zoti shahona padari buzrukvorim menga Buxoroyi sharifga qarashli bo'lgan o'lkalardan biri Nasaf[2] viloyati hukmronligini marhamat qildilar.

Bu bilan menga baxtiyorlik baxsh etib, shahona to'nlarini kiydirdilar, xisravona hukmronlik tojini boshimga qo'ydilar. Padari buzrukvorim ijozatlari bilan mazkur viloyatga azm ayladim. Shunda mazkur viloyatping barcha a'yon va xos kishilari mening istiqbolimga chiqib kutib oldilar.

Shunday qilib, men ular bilan hol-ahvol so'rashib, ular iltifotidan boshim ko'kka yetdi, ularga mehru hurmatimni bildirib Nasaf viloyati qo'rg'onining ichiga kirib bordim, barcha kattakon bo'lgan odamlarni muborakbod etib, ularni xursand va mamnun ettirdim.

Bu ojiz bandaning Nasaf viloyatidagi hukmronligi muddati o'n ikki yil davom etdi. Bu muddat ichida mening hukumatim hamisha faqirparvar va g'aribnavozlikka intilardi, mazlumlarni zolimlardan asrab, haqni qaror topdirardi. Shunday qilib, mazkur viloyat aholisini o'zimdanda xursandu mamnun ettirardim.

Mazkur viloyatga yaqin joyda Qashqa degan sho'x daryo oqardi. Undan kambag'al beva-bechoralarning kechib o'tishida rohati buzilib, doimo g'am-tashvishda edilar. Aholining osoyishtaligini ko'zlab mazkur daryoga toshu temirdan[3] bir ko'prik qurdirdim, ko'prikni esa o'z nomim bilan atadim. Shoyad faqiru fuqarolar suv kechish tashvishidan qutilib, tinchu osuda yashasalar, deb o'yladim. Shu bilan yana boshqa bir qancha madrasa va ibodatxonalar qurib, bu borada anchagina yumushlarni yuzaga keltirdim.

Bundan so'ng, hukm yuritganimdan o'n ikki yil o'tgach, zoti shohona padari buzrukvorim meni dor-ul-fohira Buxoroyi sharifga qarashli joylardan biri bo'lgan Xo'rok vodiysining Karmina[4] nomi bilan mashhur bo'lgan viloyat hukmronligiga ko'chirdi. Bu bilan zoti shahona meni o'zlariga yaqin bo'lgan joyga olib keldilar. Nasaf viloyati hukmronligidan Karmina viloyati hukmroniga aylandim. Mana shu zikr etilgan viloyatda ikki yil davomida hukm yuritdim. Shu asnodda zoti shahona hazrat Sayyid Amir Abdulahadxon - mening Padari buzrukvorim taqdiri ilohiy amri bilan foniylik olamidanda boqiylik dunyosiga rihlat etdilar[5].

Shunda iqtidor egasi bo'lmish padari buzrukvorim podishoh hazratlarining saltanati muddatiga yigirma olti yil bo'lgan edi. Shu bilan men 1329 hijriy yili muharram oyining o'ninchi kuni, milodiyning 1911 yili menga meros bo'lib qolgan marhum va mag'fur padarim saltanati taxtiga o'tirdim. Buxoroyi sharifning barcha aholisi bu ojiz bandaga xizmat qilmoqqa qasamyod etdilar. Taxtga o'tirganimdan so'ng bu banda dargohi oliyda mamlakatimning bir yillik xiroj to'lashdan ozod qilish farmoyishini berdim. Shu tariqa ish tutishim bilan faqir-fuqarolarni ko'p xursand qildim, ularning boshlari ko'kka yetdi.

Oradan bir yil o'tgach, eltutish va faqirparvarlik tartibini o'rnatishga intildim, Buxoro davlatida tartib-intizom va obodlik ishlarini bajo keltira boshladim. Buyuk ishlarni barpo etishga sa'y-harakat etdim, madrasalar, ibodatxonalar bino qilishga kirishdim. Barcha ilmlarni o'rgatish borasida anchagina harakat qildim.

Buxoroyi sharif arkining yaqinida, Baloyi havz deyilgan joyda o'z nomimga bir ibodatga masjid bino qildirdim. Buxoro minorasining past tomonida bozorning ichki tomonida o'z nomimdan Dor-ul-ulum - Bilim uyi bo'lgan bir madrasa qurdirdim; har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin etdirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim-kechagi ham o'z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin etdim; ularning yemak-ichmak, maosh va kiyim-kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkazdirardim. Bozor va yo'l obodligiga ko'p harakat qildim, uch yil ichida Buxoro mamlakati ancha obod bo'ldi, unga zeb-ziynat va tartib-intizom o'rnatdim. Mening sa'yi-harakatimdan Buxoro aholisi va butun mamlakat mamnun bo'ldi.

Banda o'z xalqim uchun qo'limdan keladigan xizmatimni bajo keltirganimga shukur qilardim. Bu bandayi ojiz Turon mamlakatida o'n yil davomida saltanat surdim. O'n yildan so'ng, Sovet davlatiga qarshi kurashdim, nihoyat Afg'oniston davlatiga ko'chdim.

Birinchi fasl

BolKjsheviklar bilan bo'lgan muhobaba hikoyasi

BolKjsheviklarga qarshi qilgan yurishim va Buxorodan ko'chishga ixtiyor etishimga doir barcha sabablar hikoyasini mushohada yurituvchilarning xotiralari uchun bularni tahrir ipiga tizdim, toki boshimdan o'tgan ahvolotimdan o'zgalalar ham xabardor bo'lsalar. Vaqt kelib Buxoroyi sharif davlati buvam, rahmatlik Sayyid Amir Muzaffarxon davri salatanatidan to rahmatlik Sayyid Amir Abdulahadxon mag'furu marhum padari buzrukvorim zamoniga va undan to bu bandayi ojiz saltanati muddatigacha mana shu Buxoroda o'tdi. Bu orada va muazzam rus davlati saltanati barqarorligining oltmish uch yilligi davomida bu tomonlarda do'stlik va oshnachalik yuz berib, ikki davlat orasida do'stlik barqaror va bardavom bo'ldi. Shu sababdan rus davlati xodimlari bilan Buxoro davlati xodimlari o'rtasida kelishuv ham bo'lib o'tgan edi. Qelishuvlarda askarlar va harbiy kurollar Buxoro tarafidan qisqartirilib, (Uni qo'riqlash uchun) harbiy asbob-uskunalar va askarlarni rus davlati o'z zimmasiga olgan bo'ldi. Buxoroda esa mamlakatni himoya qilish uchun o'n ikki ming askar bo'lishiga qaror qilindi; mamlakatni himoya qilish borasida yana askar lozim bo'lsa, rus davlati Buxoro davlatini qo'llashga tayyor turadigan bo'ldi. Shu bilan imperator davlati zamon mavjud bo'lgan qadar Buxoro

davlati askarlar va harbiy qurollarga hech extiyoji bo'lmadi, tinch hayot hukm surdi, men bo'lsam mamlakat obodonchiligi bilan shug'ullanishga intildim. Bundan so'ng rus davlati inqilobi yuz berdi. Bu banda mamlakatni tartib-intizom va xavfsizligiga sa'y-harakat qildim.

Binobarin rus jamoati ichidan bir qancha beasl bo'lmag'ur johil shaxslar paydo bo'lib, ular o'zlarining hazrat janob oliylari-rus davlati ulug'lari orasiga rahna soldilar. Ular qaror qabul qilishib, odamlarni majbur qilishdi. Bu beasl bo'lgan shaxslar bu qonun bilan odamlarni to'plab, nihoyat rus imperatorlik davlatini o'z saltanatidan ag'darib, o'z jamoasidan bo'lgan bir necha nafar odamlarni kattakon qilib ko'yidilar va o'z hukumatlarini muvaqqat sho'ro majlisi deb atab, Kerenskiy[6] degan odamni jumhuriyat raisi mansabiga ko'tardilar.

Bu muvaqqat davlatlari bir necha oy davom etdi. Mazkur Kerenskiy hukumati tarafidan ularning Preobrajenskiy[7] degan vakillaridan biri muxtor vazir qilinib, dorulfoxira Buxoroyi sharifga keladigan bo'ldi. Nihoyat u kishi shaharga kirib kelib, bu bandayi ojiz bilan uchrashdi. Bu kishi kelib gapga quloq berib, ikki davlat o'rtasida kelishuv bo'ldi, shunda Buxoro davlati mustaqilligini bu ojiz bandaga berdi va kelishuvga imzo ham chekdi. So'ng u qaytib ketdi.

Buxoro davlati mustaqillik olganidan so'ng do'stlik va oshnolik iplarini paydo qilish maqsadida Buxoro davlati nomidan vazir To'raxo'ja va mullo Qutbiddinlarni Afg'oniston davlatiga yubordim. Bu asnoda xoji Safarbiyni ham o'z namoyondam sifatida ingliz komissioniga, Mashhadga yubordim. Komission ham yuqorida eslatilgan javobni muvofiq ko'rdi. So'ng men bolKjsheviklarga Buxoroni bo'shatib qo'yishsin, degan fikrni bildirdim. BolKjsheviklar mening iltimosimga qarshilik ko'rsatishdi, ular ingliz askari bilan ham jang qildilar.

Bu borada Mirza Salimbek parvonachi va Abdurrauf karvonboshini ingliz askarlariga yo'l ko'rsatish uchun Chahorjo'y[8] tomonga jo'natdim. Lekin ularning Chahorjo'yga kelishi paytida ingliz askarlari u yerdan jo'nab qolishgan ekan.

Bu orada Afg'oniston davlati Britoniyo davlatiga qarshi urush boshlab qo'ydi, keyin muqaddas Buxoroyi sharif davlatiga afg'on davlati tomonidan general Muhammad Valixon muxtor vazir sifatida tashrif buyurdilar. U kishi zoti shahona bilan uchrashmoqchi bo'lib, afg'on amiri oliy hazratlaridan ko'pgina sovg'a-salomlar keltirdilar va bu bandayi ojizga topshirdilar. Men muxtor vazir bilan uchrashdim. Bu suhbat asnosida bandayi ojizga uning shaxsiy savoli ham bor edi, men uning javobini aytdim. Mening maqsad-niyatim shu ediki, men bolKjsheviklarga qarshi urush qilsam, zero shu fursatda dushmanning nihoyatda zaif ekani ko'rinib turibdi. Shuning uchun vaqtini g'animat bilish kerak, so'zsiz, bu-shunday, dedim. Muxtor vazir ancha aqlli va uzoqni ko'ra oladigan shaxs hamda islom davlatining xayrixohlaridan bo'lganidan mening savolimga shunday javob berdi.

Afg'oniston davlati bilan siz har ikkalovingiz birodarsizlar. Biringiz Britaniyo davlatiga qarshi bel bog'lab urushga kirishganda, siz ham bu tarafdan bolKjsheviklar davlatiga shunday yo'l tutsangiz, xudo ko'rsatmasin, sizning vositangiz sababli millat xizmatkori bo'lgan har ikki birodar islom olamidani ikki davlatni xarobalikka olib kelmasangiz, deb qo'rqaman. Bu ishni orqaga suring, shunda birodaringiz ishi nima bilan tugashini ko'rishingiz mumkin. Bundan so'ng bir-biringiz bilan bamaslahat ish yuritsangiz, yaxshiroq bo'ladi.

Rost, vaziri a'zamning bu so'zlari juda to'g'ri gap edi. Men o'zimga bo'lgan yaxshilikni shu bilan bildim va bu muloqotni ancha vaqt xotiramda saqlab, sabrni o'zimga hunar qilib olgan bo'ldim.

Muhammad Valixon Buxoro davlatidan rus davlati tarafiga jo'nab ketdi. a'lo hazrat afg'on amiri do'stlikni mustahkamlash yo'lida Fazl Ahmadxonni menga yubordi. O' ikki yuz nafar askar, bir guruh orkestr, yettita to'p, yettita filni menga yubordi. Bu asnoda eltutish tadbirlarini ko'rib, Muvaqqat jumhuriyat davlati Kerenskiyga bu bandayi ojiz o'z tarafimdan ishonchli bir kishini bir vafdamoyonda tariqasida yubordim, yangidan kelishuv tuzib, unga imzo chekishni istadim.

Mazkur muvaqqat hukumat bu qisqa fursatda inqilobga yo'liqib qoldi. Ular ikki kismga ajraldilar; biri menKjshevik, boshqasi bolKjsheviklar bo'lib, ikkala jamoa ham bir-biriga urush e'lon qildilar. Shu sababdan bular ikkalovi o'rtasida bir-biriga qarama-qarshiliklar yuz berib, nihoyat bolKjsheviklar qaror topishdi, Shunda rus davlatida kattakon bo'lganlarning hammasi xar xil mamlakatlarga parokanda bo'ldilar, u yerlarda panoj topgan bo'ldilar. BolKjsheviklardan bo'lgan bu jamoaning tartib-qonunlarini na ko'rib bo'lindi, na bilib bo'lindi. Chunki hamisha beqarorlik yuzaga keldi, bu jamoa hukumatni xarob etib, mamlakatni vayron qilishga yo'l ko'ydi, dinlarni, ibodatxonalarni yo'q qilishdi, mo'tabar va davlatmand bo'lgan har bir guruh mol-mulkini bosib olib, talon-taroj qildilar, o'zlarini qatl etishni o'zlariga burch deb bilardilar. Ularning so'zlariga ishonilmaydigan darajaga kelindi.

Bu vaqtda bu bandayi ojiz Buxoro o'lkasini tartibga tushirishga kirishdim. Bu borada anchagina sa'y-harakat etib, durust ishlar qildim. Bu orada bolKjsheviklar jamoasi beasl konun-qoidalarni chiqarib, yolg'on-yashiq ishlar bilan, buzuq yo'l-yo'riqlarni to'g'ri yo'l deb bildilar. Shu tariqa ish tutib, ularning bu tartiblari muqaddas Buxoro davlatiga ham tarqalib, bir muncha johil va ilmsiz kishilar beasl rusiya bolKjsheviklari yo'l-yo'rig'ini qabul qilishdi, o'zlarning buzuq ishlarini joriy etishga intildilar. Taxminan 117 nafar samarqandlik, toshkentliklar birlashib ittifoq tuzishdi; bu jamoa ichidan chiqkan ikki nafar kattakonlari - Fayzulla Xo'jaev[9] va Mirzo Muhiddin Mansurov buzg'un bolKjsheviklarga o'z maqsadlarini bayon qilib, ulardan yordam istashdi. BolKjsheviklar ham bu jadid buzg'unchilarga ko'mak berib, temir yo'li orqali nomi Kolesov[10] degan kimsani Buxoroga chaqirib, 1336 hijriy jumodis-soniy oyining shanba kunida (1918 yil) urush e'lon qilib, Buxoro davlatiga qarshi yurish boshladilar. Allohning inoyati, payg'ambar shariatining madadi bilan harbiy qurollarning kamligiga qaramay, Buxoro islom ahliga zafar kulib boqdi, bu banda g'alabaga erishdi. BolKjsheviklar o'z maqsadlariga erisholmay sulh tuzishga rozilik bildirishdi. Bu banda sulh tuzishni yaxshiroq deb bilib, ahvolni tuzatish maqsadida ahd tuzishga rozi bo'ldim.

Bu urushdan so'ng Lenin va Trotskiy tomonidan bolKjsheviklarning raisi sifatida Eliava[11] va Braydo degan kishi muxtor vazir bo'lib Buxoroga keldi. U kishi bandayi ojiz bilan so'zlashib, Buxoro mustaqilligini butunlay menga bermoqchi bo'ldi, hamda harbiy qurol bilan yordam berishga va'da berdi, hatto yuz yil oldin Buxoro davlatiga qarashli bo'lgan yerlarni menga qaytarib bermoqchi xam bo'ldi. Shu bilan birga ellik ming miltiq, besh yuz to'p-pulemyot, ellik aeroplan, ellik million so'm tillo to'lashga va'da berdi.

Sovet davlati tomonidan AkselKjrod[12] degan kishi Buxoro davlatiga elchi qilib tayin etildi, Afg'oniston davlatiga nisbatan do'stlik istehkomlarini tuzib, Toshkentdan menga o'n bitta o'qssiz to'p sovg'a qilib yuborishdi. BolKjsheviklarning muomalalarining qanday ekanligini shu o'qsiz to'pdan bilib oldim. Bu ojiz banda bolKjsheviklar va ularning elchilari muomalalarini kelishuvga muvofiq ish olib bormaganliklarini ko'rganimdan so'ng xayolimga bir fikr keldi. Shu sababdan men askar va harbiy qurollarni tayyorlash ishiga kirishdim. Ikki yil ichida Buxoro harbiy askarlar va qurol-asalahlari to'plab, qo'shinlarni urushga tayyor turish darajasigacha olib keldim.

BolKjsheviklar jamoasi o'z qonunlarini bajo keltira boshladilar, ammo har tarafdan menKjsheviklar bosh ko'tarib, ularga qarshi chiqqa boshladilar. Natijada ular bolKjsheviklarni bequvvat qilib, iztirobga solib qo'yidilar. Ular har yerda Rusiyadagi temir

yo'llarni qo'porishardi, hamma joyda ular bosh ko'tarib bolKjshevik davlatini ancha zaif qilib qo'yidilar. Shunda bu bandayi o'jizning xotiriga shu narsa keldiki, bolKjshevik jamoasi andak kuch to'play olsa, albatta, u Buxoro davlatidan o'z qasosini oladi. Bu vaqt o'z askarlarimni harakatga keltirib, muhorabaga kirishmoqchi bo'lib turdim. Xorazm hukumati ham men bilan kelishuv olib bordi. Mening qo'l ostimda birlashib, bolKjsheviklarga qarshi urushga istak bildirdilar. Bu asnoda bolKjsheviklar davlati kundan kunga rivojlanish tomon yuz o'gira boshladi, bu muomalalar bilan vaqt o'taverdi, borgan sari ular kuchaya boshladi. Shu sababdan bu bandayi o'jiz yaxshi niyatlar bilan kelishuvni yangilab, unga imzo chekish uchun o'z tarafimdan bir necha kishilardan vafd tuzib, Lenin va Trotskiy qoshiga jo'natdim. Bu jamoaning e'tiborsizligi va oqibatsizligini yaxshi bilardim. Bordiyu agar unga qaramay, bu xil beasl va beoqibat hukumat bilan kelishuv qilsam, xorijdagi buyuk davlatlar nazdida Buxoro davlatining badnom bo'lishiga sabab bo'lar edi. Bunday xayollarni o'zimdanda uzoqlashtirib, maqsad va muddaosiz, murosasozlik niyatida inqilob zamonini muborakbod etib besh kishini: general Mahdixon, Xoji Jo'rabek to'qsoba, G'aybullo Xo'ja, Xoji Mirzo, Mirza Navruzbey va yana bir nafar boshqa kishini Lenin va Trotskiy qoshiga Moskvaga yubordim.

Shuni aytish yetarliki, Buxoro davlati andak vaqt ichida zarur harbiy choralarni ko'rib, birozgina tartib-inizom o'rnatgach, islomda hammazhab[13] bo'lganligi jihatidan bir-biriga mehribonlik bilan qarash oqibatida ikki birodar (Afg'oniston va Buxoro) bir tanu bir jon bo'lib qoldi. Afg'oniston davlati bilan do'stlik ahdi tuzildi. Shu jihatdan bolKjsheviklar jamoasi unga rashk bilan qarar edi. Bordiyu agar asta-sekin Buxoro ham zo'rayib tartib-intizom darajasiga erishib qoladigan bo'lsa, bizning jumhuriyat davlatimiz parishonholga tushib qolishi va ranju kulfatga muhtalo bo'lishi turgan gap, deb o'ylashdi. Vaholanki, bizda yetishmovchiliklar bor. Ana shu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qattiq kirishib, o'zimizni bu qiyinchiliklardan xolos qilishimiz kerak.

Bundan so'ng bolKjsheviklarning Buxoro davlatiga bo'lgan muomalasi kundan kunga va borgan sari qattiqlasha bordi. Ular Buxoro davlatiga g'ayriqonuniy talablar qo'yib, ularni ijro etilishini talab qiladigan bo'lishdi, ular qanday bo'lmasin, bir amallab urush boshlashni o'zlariga hunar qilib olishdi. Ular o'rinsiz ravishda buxorolik fuqarolarni yo'l-yo'lakay tutib, ularni qamab qo'yishardi, nihoyat, islom davlatining bu dushmanlari anchagina askar va qurol-yarog'lar to'plab, qo'qqisdan Buxoroyi sharifga hujum qilishni istardilar. Bu bandayi o'jiz o'z dushmaniga qarama-qarshi turishga muhayyo bo'lib turdi. Har tomondan odam to'plab, Buxoroning Kogon temir yo'l stansiyasida qurollangan holda tayyor turdik.

BolKjsheviklar bu orada ko'p hiyla-tadbir qo'llashga, go'yo do'stlik liboslarini kiygandek bo'lib, aslida makru hiyla tadbirlarini ishlatish yo'lga, makkorlik yo'lga o'tdilar. Go'yo sulh tuzish uchun Baranov[14] degan tashqi ishlar vaziri bo'lmish bir kimsani favqulodda elchi qilib, Toshkentdan Buxoroga yubordilar. Muxtor vakil bu bandayi o'jiz huzuriga kelib uchrashdi. Shu kishi uzr bayon etib, gaplashdi, gaplarimizni eshitib, biz bilan kelishdi. U kishi iltimos qilib aytdiki, rus davlati ellik besh yildan beri Buxoro davlati bilan do'stlik va oshnachilikda bo'lib keldi, to shu paytgacha bizning davlatimiz Buxoro davlatidan barcha manfaatlarni ko'rib kelmoqda, shu bilan birga ikki davlat o'rtasida bu orada hech qanday bir-biriga zarar ko'radigan ishlarni bajo keltirishmadi. Istartimki, bugundan keyin ham bu ikki davlat o'rtasida do'stlik va oshnachilik gullab yashnasa va bizga ham sizning davlatingizdan yordam va manfaaat tegsa. Sizlardan bizlarga xar qancha xizmat bo'lsa, bizning jumhuriyat davlatimiz uni o'rniga qo'ysa. Lekin sizlardan bir iltimosimiz bor, o'z askarlaringizni bizning temir yo'l stansiyasidan olsangiz, chunki biz uni o'zimizga istehkom qilmoqchimiz. Bizning askarlarimiz vahshiy va nodon odamlardir. Mabodo sizning askarlaringizni ko'rib qolsa, unga to'qnashib qolib, sizdek zoti shahona oldida bizni uyaltirib ko'yishadi. Bu borada siz nimaiki istab, unga xohish bildirsangiz, o'sha aytganingizni bajo keltiramiz.

Shu tariqa u bilan gaplashib, gaplarini eshitib, kelishuv tuzdik, unga imzo ham chekdik. Shu bilan u o'z joyiga qaytib ketdi.

BolKjsheviklar yo'l to'sib qo'lga kiritgan bir kancha fuqarolarimizni bo'shatib, yo'lovchilarni qo'yib yuborishdi.

Shu bilan bu bandayi o'jiz askarlarimni rel[15] tarafdanda uch milcha[16] yo'ldan olib orqaga chekindik, u yerda bir istehkom ham qurdik, so'ngra bu manzilga qirq nafardan iborat askarlardan qorovul qo'yidirdim. Har ehtimol, bu narsa dushman siqib kelganda shoyad fuqarolarga madad bo'lishi mumkin edi. Ammo dushmanlarimiz bu nayrang bilan bizni g'afatda qoldirib, misoli bir yo'lto'sarlar kabi, urush e'lon qilmasdan hijriyning 1339 yili (1920) zulhijja oyining o'n beshida yakshanba kechasi soat o'n ikkida soqchilar va qo'riqchilar ustiga hujum qilib kelib, o'sha yerda temir yo'l atrofiga qo'yilgan barcha qorovullarni, taxminan, yuz ellik nafar kishini bandi qildilar.

Shu tariqa ular Buxoro askarlari ustiga yopirilib kelib hujum uyushtirdilar, shu bilan urushni boshlab yubordilar. Natijada vaqt yarim kecha soat ikkida ancha askar va harbiy qurollar jamlab, to'p otish va o'q yog'dirish bilan birga temir qalqonli aravalalar - broneviklar, temir qoplangan motorlar - bronepoezdlar bilan urush boshlab yubordilar. Ular o'n bitta tayyora bilan Buxoro shahri ustida havoda parvoz etib, bomba yog'dirdilar. Bu bandayi o'jiz o'z askarimni majburan oldinga - frontga chiqarib, ixtiyorni taqdiri ilohiyga topshirib, to'rt kechayu to'rt kunduz urushdik. Bu urush asnosida dushman taxminan Buxoroning yarmini to'p va pulemyotdan o'qqa tutib, ko'p talafot yetkazdi. Musulmon bechoralar dushman dastidan mol-dunyasini, o'z farzandlarini tashlaganlaricha, nima qilishlarini bilmay, har tomonga qocha boshladilar. Shunga qaramay, bu bandayi o'jiz to'rt kechayu kunduz dushmanga qarshi urushdim, qattiq jang qildim. To'p o'qlarining ko'pligi, bomba yog'dirishlar, talafot va xarobaliklar Buxoro shahrida ortib ketib, kambag'al beva-bechoralarni qattiq tashvishga solib qo'ydi. Shunda o'zimcha o'yladim. Bu bandayi o'jiz ushbu Buxoroyi sharif shaharidan ko'chishni ixtiyor etsam, shoyad shu sababdan xarobalikka bo'lgan sabablar yo'lini to'sib, faqiru fuqaro bechoralarni bu jabr-sitamlardan ozod qilsam va osoyishtalik baxsh etsam, degan andishada chahorshanba kuni tushdan keyin soat to'rtlarda foytung'a o'tirib, misoli hazrat Payg'ambar alayhissalom sunnati bo'lmish hijrat kabi[17] ko'chishni ixtiyor etdim. Shohlik bog'i sanalgan Sitorayi mohi xossadan[18] chiqib, Tumon Komot va Xirqonro'd, ya'ni G'ijduvon tarafga ravona bo'ldim. Bu vaqtda menga afg'on elchisi va brigad sarkardasi Abdushukrxon va Afg'onistonning Toshkentdagi elchisining ov boshlig'i Muhammad Aslamxon, afg'on harbiy qozisi (attashesi) va yigirma besh ming nafardan iborat Buxoro xizmatchi va askarlari, shuningdek, afg'on askarlari va mansabdorlari menga hamroh bo'lishdi. Biz G'ijduvon tumaniga yetib kelib, bir kechani o'sha yerda o'tkazdik.

Mening ko'chishimni eshitib faqiru xotin-xalaj, bola-chaqalari bilan yig'lab, nola qilishib, mening izimdan tushib, panjshanba kuni kechqurun o'sha zikr etilgan G'ijduvonga, qo'noqjoyimga yetib kelishibdi. Ular taxminan o'n ming nafardan ortiqroq edi. Hammasi yig'lagancha kelishdi, xuddi qiyomat kunini ko'z o'ngimda keltirgandek bo'ldim. Ular o'zlarini yerga urib, qancha-qanchasi bu g'am-anduh va judolikka chiday olmay taqdiri ilohiy bilan haqqa jon taslim qilib, xudoyi taolo rahmatiga erishdilar.

Bu bandayi o'jiz shu ahvolda alam yetgan barcha bechoralarga nasihat etardim, ko'ngil ko'taradigan so'zlarni aytib tasalli berardim. Har bir bechoralar haqqiga duo qilardim, o'zim ham unday faqiru fuqarolar duosini olardim. Shu bilan nima qilishimni bilmay, mayus, nimagadir muntazar bo'lib qoldim. Shu bilan Buxoroning sharqiy tomonini istab qoldim, natijada sakkiz kun deganda Buxoroga qarashli Qo'rg'ontepa degan joyga yetib keldim. Unda bir o'n kuncha turdim. G'ijduvon muyulishida nogahon

bronepoezd vagoni paydo bo'ldi va yo'lni to'sib qo'ydi. Shu paytda bir necha nafar mening atrofidagi odamlarim, chunonchi, Usmon qushbegi, qozilar qozisi Burxoniddin, rais Abdurrauf karvonboshi, Yusufbey Muqimbiy qo'lga tushib qoldilar. Dushman yo'lni to'sish niyatida mazkur viloyatda istehkom qurish taraddudini ko'rdik. Bu ish uchun askar va fuqarolarni to'plab Boysun viloyatiga qarashli Bandar degan joydan Darband degan joygacha dushman oldini olish uchun istehkom qildik, o'sha yerdan urush boshlashni uylab qo'ydik. Keyin Buxoroning sharqi bo'lgan Hisor viloyatiga kelib turdim. Hisor viloyatida bolKjsheviklarga qarshi olti oy davomida kurash va jang olib bordim.

Jang boshida harbiy vazir tog'am Muhammad Saidbek parvonachi va urush qo'mondoni Abdulhafiz Parvonachi, Ibrohimbek biy askar boshliqlari edilar. Shu bilan olti oy davomida kurash va jang yuz berib, oxiri bolKjsheviklar jamoasi o'zlari paydo qilgan mazkur urushga majbur bo'lishib, Moskvadan anchagina askar va harbiy qurollar yig'ib keldilar. Shu bilan ular birdan islom lashkari ustiga hujum boshladilar. Islom askarlarida harbiy anjom va qurollar kam bo'lganligi jihatidan o'n kun davomida urushib, jang qiladilar, so'ngra bu bandayi ojiz yordam va madad so'rash harakatida xorijiy davlatlarga murojaat qildim. So'ng Hisor viloyatidan Kulob viloyatiga o'tdim. Bu viloyatda Mulla Muhammad Ibrohimbek devonbegi va Davlatmandbek devonbegi bular Buxoro sharqidagi o'zbeklardan edi, o'zlari Buxoro davlatiga sadoqatli bo'lib, anchagina layoqatli xizmatlar, jonbozliklar ko'rsatib qo'yishgan edi, hamda bu bandayi ojizning ko'nglidagini topgan ham edi, ularni lashkarboshilikka tayin etdim. Ular ikkalovini huzurimga chorlab, siporish berdim:

"Bu bandayi ojiz dorussaltana Qobulga borib, madad va ko'mak olish taraddudiga kirishay. Agar bu yerdan chiqishim sababli bizga biror ko'mak va yordam tegsa, uni bajo keltirib kelgunimcha, sizlar o'z askarlaringizni dushmanga qarshi qo'yib turinglar. Hozir dushman hujumi ko'proq bo'lib turibdi, agar unga bas kelib turmasangiz, faqiru fuqarolar tashvishi ortadi. To men qaytib kelgunimcha, faqiru fuqarolar osudahol kun ko'rib turishsa", dedim.

Men amr-farmon chiqarib, uni muayyan joylarga yubordim, Muhammad Ibrohimbek bilan Davlatmandbekka mening o'sha ruxsatlarim bilan ish yuritishga, dushman yo'lni istehkom qilib turishga buyurdim. Men o'zim bo'lsam, Ko'lob viloyatining usti bilan Amudaryodan o'tadigan joydan 1339 yilning (1921) jumadus-soniysining yigirma ikkisida, chahorshanba kuni daryodan kechib o'tib, Afg'oniston tuprog'iga doxil bo'ldim.

Afg'onistonning chegarasida tartib-intizom saqlovchi ma'muri o'z askarlarini tizib, bizni kutib olishga peshvoz chiqdi, bizga salom berib Abdunazarbegi degan joyga qarashli bir qishloqda tayyorlab qo'yilgan qo'noq joyga tushdim. Men bu yerda istirohat qilib o'sha oyning yigirma uchida panjshanba kuni o'sha joyning rustoqi - markaziga yetdim. Yuqorida zikr etganim Muhammad a'lamxon taxminan uch yuz nafar askarini saf tortirib, mening istiqbolim sharafiga o'n bir bor to'p otib, qarshi oldi. Shu tariqa men rustoqning ichiga kirdim. Ikki kunni o'sha yerda o'tkazdim. Mening bu yerdaligim xabarini Qatafan hokimiga bildirtirdim, keyin mazkur oyning shanba kuni Qatafanga azm etdim. Hukumat noibining o'g'li o'sha viloyatning bir necha nafar mo'tabar kishilari bilan birga menga peshvoz chiqdilar, o'sha asnoda ular bu bandayi ojiz bilan uchrashib, menga hamrohlik qildilar. Shu bilan dor-ul-hukumatga ravona bo'ldik. Mazkur hukumat raisining noibi - gubernatori Muhammad Akbarxon va bosh qo'mondon Binbinxonlar askariy marosim bilan bir farsah[19] yo'lga peshvoz chiqishdi, yigirma bir bor salom to'pi otishib meni muzika bilan kutib olishdi. Shunday qilib, jumadus-soniyning yigirma to'qqizida chahorshanba kuni Qatafan dor-ul-hukumatiga kirib bordik. U yerdagi Hayot-ul-obod degan shahona bog'da dam oladigan bo'ldik. Shu bilan o'ttiz besh kun o'sha yerda orom oldim.

Bu orada afg'on amiri olihazrat Omonullaxon tarafidan Muhammad Aslamxonni Mirshikor[20] sifatida bu bandayi ojiz xuzuriga yubordi, U kishi bir qancha vaqt men bilan birga bo'lib, ko'p mehmonnavozlik ko'rsatdi. Binobarin, amir hazratlari menga tasalli berish maqsadida o'z tarafidan menga xat yo'llab, meni u bilan uchrashishga va yuz bergan besaranjom ahvolni bartaraf qilishimga Dor-us-saltana bo'lmish Qobulga, o'z nazdiga taklif qildi.

Bu bandayi ojiz Amudaryodan Afg'oniston tarafiga kechib o'tayotganimda, Buxoroning eng mo'tabar navkarlaridan tahminan uch yuz nafari menga hamroh edilar. Shu bilan birga har bir o'sha eslatib o'tilgan daryo guzargoxida taxminan bir lak[21] nafar odamlar o'tib, huzurimda to'planishar edilar. Bu jamoadan taxminan besh yuz nafarini, shu jumladan eng ko'zga ko'ringan Buxoro aholisidan o'zimga yo'ldosh qilib olib, qolganlarini Afg'onistonga qarashli turli-tuman yerlarga tayinladim. O'zim bo'lsam, o'sha besh yuz kishi hamrohligida dorussaltana Kobul tomon yuzlandim.

Shu bilan bir necha kun yo'l yurib, nihoyat, 1339 hijriy yili sakkizinchi ramazonda, chahorshanba kuni Dor-us-saltana bo'lmish Qobulga yetib keldim. Nihoyat, bu bandayi ojizning orom olishi uchun qarorgoh qilib tayyorlangan shohlik bog'i bo'lmish - Murodbegi qal'asiga, bizga ajratilgan yerga o'rtnashdik.

Oliy hazrat afg'on amiri tarafidan chamasi o'n nafar vazir va amirlar mazkur boqqa kelishib, bizni kutib olishdi. So'ngra afg'on amiri bu bandayi ojizni qancha-qancha nafar mo'tabar kishilari kelib, biz bilan uchrashdilar va biz amir bilan bir-birimizni ko'rish sharafiga muyassar bo'lgan bo'ldik. Shu tariqa men Afg'oniston davlatida bir oy davomida mehmondorchilikda bo'ldim. Bir oy o'tgandan so'ng mening sarf-xarajatimga har oyga o'n ikki ming qobul rupiyasidan oylik tayin qilishdi.

Bu bandayi ojiz o'z ishimni sarishta qilishga intildim. Binobarin, Allohning irodasiga muvofiq taraddudlarim takdir nasibasiga erishmadi, menga madad va yordam yetishi nazardan uzoq edi. Shu sababdan taqdiri ilohiyga rozilik berib, Dor-us-saltana bo'lmish Qobulda turib qoldim.

Nihoyat, men u yerda turib kolishni ixtiyor etdim, zoti shahona oliy hazrat afg'on amiri Qobulning janub qismidagi Fatu degan bog'ni menga in'om etib, mening sarf-xarajatimga beriladigai o'n ikki ming rupiyani o'n to'rt mingu besh yuz rupiya qilib tayin etdilar.

Men vaqt-soati yetib Buxoro tuprog'idan Afg'onistonga o'tgan kezlarimda bolKjsheviklar jamoasi kelib, Muhammad Ibrohimbek Devonbegiga qarshi tavsif etilgan urushga kirishib, shu tariqa bir necha kunlar o'tdi. Nihoyat, qurol-yarog'ning ozligi, dushman hujumining ko'pligi jihatidan mazkur lashkarboshining askarlari xar tarafga yashirinib, ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Dushman bo'lsa bu xolda taraddudlanib qoldi. Ular har tarafda bor bo'lgan fuqarolarni tutib olavardilar. Ular ortiqcha zulmu istibdodini haddan oshirib yubordilar.

Mulla Ibrohimbek Devonbegi o'sha tavsiflangan lashkarboshi bo'lganidan o'z askarlarini to'plab, ular hol-ahvolini ko'rib ohista-ohista ishga kirishib, qaysi qishloqqa dushman kirib joylashgan bo'lsa, ularni topib, ustiga hujum uyushtirildi, natijada anchagina harbiy qurol-yarog'larni to'pladi. U fuqarolar va mazlumlariga xabar berib andak fursat ichida bir o'n mnng nafar askar to'pladi, shu bilan Ko'lob va Balchuvonga hujum qilib, bu ikki viloyatni dushman qo'lidan xalos qildi va sarf-xarajatini topib, Qobul dorussaltanasiga bu bandayi ojizga o'z ahvoli va kayfiyatlarini bitib, o'zining bir necha askarlari, sardorlari hamrohligida menga yubordi. Mazkur shaxslar mening huzurimga yetib kelib, Mulla Ibrohimbek ahvoli va kayfiyati xabarini menga yetkazdi. Bu asnoda Ibrohimbek Devonbegining o'zi Qarotegin va Dorvoz viloyatlari ustiga hujum qilib bosib bordi va bu ikki viloyatni ham

egalladi. O'zining bu kayfiyatlaridan meni xabardor qilgani odam yubordi. Ibrohimbekning bu g'ayrat va mardligidan ancha mamnun bo'ldim. O'z tarafimdan Ibrohimbekni aytganim yuqori mansabga ko'tardim. Muhoraba uchun ma'lum buyruqlar chiqarib, muhorabani davom etdirishga ijizat berdim.

Ibrohimbek bo'lsa o'sha tavsif qilingan yetti yil davomida bolKjsheviklarga qarshi musulmon xalqi va bu bandayi o'jizni deb urush qildi, jang asnosida qahramonliklar ko'rsatib, uning yakunlaridan hamisha meni xabardor etib turdi.

Shunday qilib mullo Ibrohimbek o'sha tavsif etilgandek, mendan buyruq olgandan so'ng o'z lashkarlarinnn qo'lga kiritish uchun ularning barchasini jamlab, Hisor viloyatining ustki kismiga o'tlanib borib, dushman bilan anchagina yuzma-yuz bo'ldi, u bilan jang qildi, harbiy qurol va xazinalarini o'lja qilib oldi, hattoki Hisor viloyati arkini qurshab oldi. U doimo bu bandayi o'jizga o'z ahvolidan xabar berib turardi. U xuddi mujoxidlaracha[22] xizmat qilib, o'z ishidan bizni ogohlantirib turardi. Shunda bu bandayi o'jiz islom yo'lidagi mujohidlar uchun yuqori mansablar, daraja va shonlarini ko'tarish uchun muhrim va imzom bilan buyruq yuborardim. Har gal hol so'rash uchun o'z tarafimdan Qobul dorussaltanasidan bir - ikki nafar odam yuborib xolidan xabar olardim. Shunday qilardimki, mening tarafimdan borganlar hol-ahvol so'rashib, qaytib kelishardi; Ibrohimbek ham o'z ishini hech mahal mening ijizatimsiz qilmasdi. Shu asnoda Ibrohimbek Hisor viloyatini o'rab olgan bo'ladi. Buxoroyi sharif tarafidan turk Anvar poshsho[23] yigirma yetti nafar turklar bilan Buxoroning sharq tarafidan Qo'rg'ontepa viloyatida mujohid askarlariga yaqin keladi. Shunda mazkur askarlar Anvar poshshoning bu kelishi kayfiyatini mullo Ibrohimbekka xabar berishibdi. Shu bilan bu lashkarboshimiz[24] bu ma'nodagi gapni bu bandaga xabar qiladi. Ahvolga ko'ra qanday siyosat yurgizishni u mening fikr-muloxazamga tashlaydi. U kayfiyatni, dono bir tadbir ishlatish yo'lini va xususan musulmonlar xalifasi bo'lmish Sulton Rashodxon[25] haqida ham yozib yubordi. Men bu xabardan ogoh bo'lib, Ibrohimbekka farmon yo'lladim. Unda Anvar poshshoni dushman bilan kurashda o'ta sohibi tadbirkor ekanini, unga siz olijanoblik ko'rsatishingiz lozim. O'z yoningizga chorlab so'rang, agar islom millatiga xizmat qilishga istak bildirsa, bizning zoti oliyimizdan vakolatan ulug'vor va olijanob xizmatlarini deb, daryodan o'tkazib, bu tarafga ravona qilib yuboring (deb yozdim). Bu bandaning farmoni yuzasidan Mullo Muhammad Ibrohimbek mujohid askarlarni to'plabdi, uni kutib olib, oliyanoblik ko'rsatib, Anvar poshshoni o'z huzuriga chorlabdi. Nixoyat, uning shaxsiy maqsadini so'ragach, Anvar poshsho islom xalqi uchun xizmat qilishni istagini bildirgan, shu tariqa biz aytgan Ibrohimbek o'sha aytilgan Hisor viloyatida hujum uyushtirib, istagiga erishdi, mazkur viloyatdan anchagina xazina va harbiy qurol-yarog'larni qo'lga kiritdi. Bu viloyatni o'ziga markaz qilib oladi. Dehnav[26] viloyatining yuqori qismi bo'lgan Boysun, Huzor[27], Sherobod, Qarshida xarakat qilib, o'z kayfiyati va ahvoli xaqida bu bandayi o'jizga ma'lumot berib turdi. Men bo'lsam o'z tarafimdan Ibrohimbekni sifatlab bir qit'a rizonoma va bir QurKjoni sharif hamda bir zardor rasmiy to'n marhamat qilib yuborib, hurmatini bajo keltirdim, boshini ko'kka ko'tardim.

Buxoro shahri tevarak-atrofi va Buxoro tumanligi Ibrohimbekning kurashi xaqida xabardor bo'lganidan Buxoro shahri atrofidagi fuqarolar, G'ijduvon, Pirmast, Vobkent, Xo'ja Orif, Xutfar, Vag'onza, Qorako'l tumanliklari aholisi va fuqarolari, taxminan, o'n besh ming nafar odam to'plab, bu bandayi o'jizga tabi'lik va fidokorlik bildirgan. Buni menga mulla Ibrohimbek bir xatga bitib, bu bandayi o'jizga yubordi. Mullaa Ibrohimbek ularning arzi hollarini aytib, mendan sardorlik qilishimni iltimos qilgan. Men Abdulqahhor degan mening bir mo'tabar hamsuhbatimni buxorolik fidokor fuqarolarga yo'lovchi sardor qilib tayinlashga qaror qildim.

Shunda men o'z tarafimdan o'sha jamoadan bo'lmish bir qancha odamlarni sarkor qilib tayin etdim, o'z nomimdan farmon bitib yubordim. Zero mulla Abdulqaxxor mening ruxsatnomamni olib,

Buxoro sharqiga, o'sha Mullo Ibrohimbek dargohiga yetishgan, u bilan uchrashib, u yerdan Buxoro tarafiga o'tib, u yerdagi Buxoroning fidokor fuqarolari jamoasiga yetishib, mening nomimdan mazkur jamoadan hol-ahvol so'rashgan, bundan so'ng ular tadoriklar qilishib, bolKjsheviklarga qarshi jang boshlaydilar. Millatga jonfidolik ko'rsatish bir maqsadga aylandi, Xudo xohlasa, Buxoroyi sharifning din yo'lidagi jang va fidokorliklari, jonbozliklarini tahrir ipiga tizmoqchiman.

Endi Anvar poshshoga kelsak, u Buxoro sharqida Ibrohimbek yonida bir yil davomida dinga e'tiqod va sadoqatla xizmat qildi, bu asnoda Buxoro sharqidagi bir qancha viloyatlar qo'lga kiritildi, Buxoroni dushman qo'lidan xalos qilindi.

Ikkinchidan, Mulla Ibrohimbek Buxoronning sharqida yashaydigan fukarolar bilan kelishib, bu bandayi o'jizni so'rab oliy hazrat Afg'oniston amiriga arzihol qilishdi. O'zlari tarafidan sakkiz nafar vakil tuzishib, Qobuldagi dorussaltanaga yuborishdi. Zikr qilingan vakillar Qobulga kirib kelishdi, ular afg'on amiri xuzurida bo'lib, unga murojaat qilishdi.

Afg'on amiri arzu holni eshitdi va uni ma'qul topdi. Shunda Anvar poshsho bu borada fikr bayon qilib qoldi: uningcha, hozir dushman istehkom yo'lining asosiy qismi Buxoroning sharqidagi qo'rg'on deb bilishib "bu to'g'ri emas, zero ki bizning ro'paramizda turgan dushman yer yuzidagi buyuk davlatlar qabul qilgan xalqaro qonunlarni inkor qiladi. Biz hamisha urushga bog'lanib qolganmiz. Xudo xohlasa, qulay fursat kelib, Boysun viloyatini egallab, o'z tasarrufimizga kiritsak, chegara joylarimizdagi qal'alarimizni o'zimizga istehkom qilgan bo'lardik. Shundan keyingina o'z podshohimizni keltirishimiz mumkin. Shu isloh bilan Buxoro sharqining vakillari o'z joylariga qaytmoqchi bo'ldilar.

Olihazrat afg'on amiri vakillarning har biriga anchagina shafqat mehribonlik ko'rsatib, xursand qilishib, ularga qaytishga ruxsat berdilar. Mazkur vakillar o'z joylariga qaytib keldilar. Bu kayfiyatdan so'ng, 1345 hijriy, zulhijjaning o'ninчисida Anvar poshshoning shahid bo'lgani ma'lum bo'lib qoldi. U Baljuvoning yuqori qismida bo'lgan jangga kirib, iydi qurbon kuni shaxid bo'lish darajasiga yetishdi. Uning jasadi Chakan mavzeida Hazrati Sulton degan nom bilan mashhur bo'lgan ziyoratgoh joyga dafn etildi. Shu kuni Davlatmandbek[28] ham shohid bo'lgan edi.

Sharqiy Buxoroda Davlatmandbek ayg'oqchilari dushman tomonga o'tib, xabardor bo'lishsa, bolKjshevik jamoalari qancha vaqt tayyorgarlik olib borib, askar to'plamoqchi bo'lgan, ikkinchidan, 1925 milodiy yili Buxoro sharqining lashkarboshisi Ibrohimbek ustiga qo'qqisidan hujum boshlagan, shu bilan yigirma besh kun davomida ikki o'rtada paydar-pay urushu qirg'inlik yuz berdi, kechayu kunduz jang bo'lib, misoli qonli Sayxundan kechib o'tildi[29].

Bu urush paytida Mulla Ibrohimbek o'shal tavsifli g'alaba qozondi, bir qancha to'p va pulemyot va 1800 bengotar miltiq, uch yuz ming beshotar miltiq o'qi, ikkita temir qoplangan motor - bronevik, ikki dona aeroplan osmondan urib tushirib qo'lga olindi. Aeroplanning ichida bir qancha mauzer to'pponchasi bo'lib, ular ham o'lja qilingan. Bularning xammasini mufassam qilib bitib, bu bandayi o'jizga ma'lum qilishdi. Bol'sheviklar o'z istaklariga erisholmaydi. Ular biroz nafas rostlaydi.

Yuqorida zikr etilgan Ibrohimbek bo'lsa mamlakatni tartibga tushirish, o'z askarlarini tuzish ishi bilan band bo'ldi. Bir qancha vaqt o'tgach, 1345 xijriy yilining boshlarida Mullo Ibrohimbek Sharqiy Buxoroning mujohid askarlariga tartib berib, ularnq to'plab, Boysun viloyatining yuqori qismiga borish azmida edi.

Bu asnoda bolKjsheviklar Darkadning yuqorisidagi Amudaryo bo'ylarida o'z askarlarini jamlab Afg'oniston davlatiga qarshi

qaratdi; chegara masalasida bir-biri bilan gaplashishdi, bir-birini eshitishdi. Bu ikki zikr etilganlar orasida ishlar andak taranglashdi. Ibrohimbek bu xabarni eshitib, Boysun yuqorisiga borish niyatidan qaytdi. U o'zining bir necha nafar sarkardalari bilan yarim askarini Boysun tarafiga ravona etib, o'zi o'n besh ming askar xamroxligida afg'on davlatiga yordam bermoq niyatida Afg'oniston chegarasiga yaqin yerda, tog' tagiga kelib turdi. Bu yerda u qirq kun davomida kutdi. Shundan so'ng Afg'oniston bilan bolKjsheviklar o'rtasida muomalalar bir yoqli bo'ldi, o'zaro kelishishdi. Ibrohimbek bu xabarni eshitib, o'z joyiga qaytish niyatiga tushdi. BolKjsheviklar uning bu ahvolidan xabar topishib, yigirma besh ming nafar bolKjshevik askari bir necha tomondan Ibrohimbek askarlari ustiga xujum qilishga tushdi. Shunda besh kechayu kunduz davomida jang bo'ldi, ikki tarafdan ko'p odam o'limga duchor bo'ldi. Dushman hujumi ortaverganidan mujoxidlar askarlari har tomonga tarqalib ketib, Ibrohimbekning uch yuz nafar navkari bolKjsheviklar orasida bo'lgan jangda o'zi qolib, ahvoli tang bo'ldi, nihoyat, Ibrohimbek o'z oti jilovini Amudaryo suviga burdi, daryodan u Afg'oniston tarafiga o'tdi. So'ng u bu bandayi ojizga o'z ahvoli, kayfiyati, kurashi va o'sha ma'lum daryoga burilgani, tashlangani xaqida meni xabardor qildi.

Afg'oniston davlati Ibrohimbekka odam yuborib, uning xabarini eshitish uchun dorussaltana Qobulga chorladi, uch kun davomida unga mehmondorchilik ko'rsatdi. Amir uning uchun maosh, joy ajratdi, ammo Ibrohimbek maosh va turar joy olishni istamadi. Afg'oniston davlatidan iltimos qildi. "Men Buxoro poshshohining fidoyi xizmatkorlaridan biriman. Istardimki, o'z valine'matim qoshiga borsam va qolgan umrimni u kishi ostonasida o'tkazsam".

Shu sababdan Ibrohimbekni men bilan uchrashdirish uchun qoshimga ravona etdiribdilar. U men bilan birga yashadi. Uning kunlik xarajati uchun Afg'oniston davlati tarafidan xar oyiga besh yuz ellik qobiliy rupiyasi tayin etildi.

Mullo Abdulqahhorning buxoro atrofida to'rt yil mobaynida urushi

Mullo Abdulqahhor dorussaltana Qobuldan bu bandaning ruxsati bilan Buxoro va uning tumanlari atrofida fidokor mujohidlarga rahbarlik qilib, askarlar orasida tartib-intizom o'rnatgach, u G'ijduvon tumanini ozod qilish niyatida dushman ustiga bostirib bordi, shu bilan, G'ijduvon tumanini dushman qo'lidan qatqardi va uni o'z tasarrufiga kimgazdi. Shu bilan u yerdan anchagina din va bu banda tarafdorlari fidoyi kishilar unga hamroh bo'ldilar. Shu jumladan Buxoro atrofidan taxminan olti ming nafar, Vobkent tumanligi tarafidan ikki ming nafar, Vag'anza tumanidan ikki ming nafar, Shofrikom[30] tumanidan ikki ming nafar, Pirmast tumanidan ikki ming nafar, Xutfar va Laqlaqa tumanidan ikki ming besh yuz nafar, Bahouddindan ikki ming nafar askar yig'ildi. Shunday qilib, barcha joydan yig'ilganlarni jamlasak, yigirma besh ming nafardan ortiqroq jamoa yig'ilibdi. Har bir firqa ichidan bir yoki ikkitadan o'z-o'zlariga sarkarda tayinladim. Natijada G'ijduvon tumanidan dushmanga qarshi urush boshlanib, ikki o'rtada qattiq jang bo'ldi, bir oy ichida bolKjsheviklar qo'lidan ikki ming beshotir miltiq, yuz ming beshotir o'q, o'nta pulemyot va uchta temir qoplangan bronevik o'lja olindi. Shu bilan bir necha tumanlarni egallab, Nurota viloyatining yuqori qismiga borib, u yerda bir qancha nafar ulug' odamlar istiqboliga chiqishib, mujohid askarlarning ahvol va kayfiyatlarini anglashib, keyin askarlarni olib Nurota viloyatiga kirib borishdi. Shahar bolKjsheviklarini ushlab bandi qilib oldi. Bundan u yerdagi fuqarolar ancha xursandchiligini izhor qilishib, xutbani bu bandayi ojiz nomiga o'qishgan.

Mullo Abdulkahhor bolKjsheviklardan anchagina harbiy asbob-uskunalardan o'lja olib, Nurota viloyatini o'ziga markaz qilib oldi. U o'z ishlarini saranjom qilganini ko'rib, u yerdan Buxoroning yuqori tomoniga yurish qildi; Saripul, Mehtar Qosim ko'prigi boshigacha borilgan asnodda Buxoro jadidlarining Abdulhamid afandi degan harbiy vaziri oltimish nafar buxorolik, turk, hindi odamlari hamrohligida o'z oldilariga anchagina qurol-yarog' qo'yib Mulla Abdulqahxorni kutib olishdi. Abdulhamid afandi shunda mullo Abdulqahhorga olti ming ingliz funti, ikkita pulemyot hadya qildi.

Abdulhamid afandi mullo Abdulqahhordan Buxoroning sharqiy tomoniga borib, Anvar poshsho va Ibrohimbek Devonbegi yoniga borish uchun ruxsat oldi. U yerga kelib, undan uzr so'rab, uning xizmatiga boyanib qoldi. Buni Anvar poshsho xabar qildi. BolKjsheviklar jamoati mullo Abdulqahhorni Mehtar Kosimdagi ko'priikka yetishganda xabar topib, to'plangan askarlari bilan urushga kirishib, jang boshladi, ikki kechayu kunduz jang qildi.

Mulla Abdulqahhor bolKjsheviklar ustidan zafar qozondi, yana Buxoro shahri tevaragini o'rab oldi, natijada, shaxarning olti darvozasini egalladi. Shu bilan u bolKjsheviklarni siqib chiqarib, Buxoroni bo'shatdi. U temir yo'l to'xtami - Kogonga yurish qilib, shahar ichkarisiga kiradi, to'rt soatdan ko'proq bu yerda turib, keyin shahar ichkarisidan chiqib Bahouddinga bordi, u yerda o'n soat jang qilib, u yerni xam bolKjsheviklar qo'lidan xalos qildi. Abdulqahhor Buxoro va Bahouddindan qo'lga anchagina o'lja kiritdi. U o'z ahvoli kayfiyatlarini yozib menga bildirdi, shu bilan men ularning barcha ahvollaridan xabardor bo'ldim.

Abdulqahhorning bu xizmatlaridan esa ko'p mamnun bo'ldim. Shu bilan unga bir askariy zarli to'n va mauzer to'pponcha xadya yubordim.

Bu kunlarda bolKjsheviklar bezovtalanib, sarosimaga tushishdi, askar to'plashga urinib, Maskov va Toshkand tarafidan anchagina askar yig'di. Shu bilan har tarafdan birdaniga o'lo' zikr qilganim mullo Abdulqahhorga hujum qilishdi, Buxoro va Baxouddinni mujohidlar qo'lidan olib, bolKjsheviklar ming nafarga yaqin mujohidlarni asir qilib qo'lga kiritishdi. Hatto bolKjsheviklar mullo Abdulqahhorni qo'lga olish yo'lida anchagina urindilar; kechayu kunduz jangni davom etdirib, dushman xujumi kundan-kunga orta bordi. BolKjsheviklar mujohid askarlar o'rtasida ko'plab davlatlar sarf etdi, ularni inqilob qilishga undadi. Yigirma besh kun ichida mullo Abdulqahhorning ikki birodarini shahid etdilar. Faqiru fuqarolarni iztirob-tashvishga solishdi, ko'p xarobalikalarni yuzaga keltirishdi. Shu sababdan mullo Abdulqahhor o'z fuqarolarining tinchligini ko'zlab, ot jilovini cho'lga, Qozog'iston yerlari tomonga burdi. U yerlarda yashirindi, bu yo'l bilan u fuqarolar ustiga tushadigan notinchlik tashvishlarini yengillashtirmoqchi bo'lgan edi. BolKjsheviklar tumanlar[31] ustiga askarlarni ko'paytirdilar. Ular tag'in hukumat - Olimxon askarlari tarafdorlari ko'tarilib, biror bir xarakat qilib qolishmasinlar, deyishdi.

Bu banda shahzodalik paytimdan tortib to Buxoroyi sharifda saltanat tutganimga qadar, shu bilan birga viloyatlarga taalluqli gaplarni yozdim. BolKjsheviklarga qarshi, binobarin, inqilob zamonida xam kurashdim. Bundan so'ng ko'chishni ixtiyor qilib, Dorus-saltana Qobulga o'tdim. Buxoro axolisi va unga taalluqli viloyatlar mening tarafdorim bo'lib, bolKjsheviklarga qarshi yetti yil davomida kurashdilar; yodgorlik tariqasida shu voqealarni ko'rib turganlar uchun bu boradagi tariximni tahrir ipiga tizdim, toki ular boshimdan o'tganlardan xabardor bo'lsinlar.

O'qigandan duo ta'madorman,

Chunki men bandayi gunohkorman.

(Har kim xonad duo tama doram,

Zi onki man bandayi gunoxkoram)[32].

Ikkinchi fasl

Buxoro amiri Oliy hazrat Sayyid Amir Olimxon yuqorida bayon qilingan esdaliklari 1927 yili sentyabrida o'zining mutlaq vakili bo'lmish general Hoji Yusuf biy Muqimbiy tavassuti bilan Millatlar Ittifoqiga taqdim qilingan edi.

Buxoroning tabiiy jug'rofiyasi

Buxoro mamlakati Amudaryoniig sharqiy sohillaridan, ya'ni Rusiya Pomiridan to Xevaning keng dashtlarigacha cho'zilib boradi. Rusiya bilan Buxoro o'rtasida bo'lgan urushdan oldin 1868 yili va bolKjsheviklar hukumati tasarrufida (1920) bo'lgan chog'da Buxoro shimol tarafdin Qizilqum saxrosi bilan chegaradosh. G'arb tarafdin Sirdaryo bilan hamda Ho'qand xonligi bilan, janubdan esa Afg'oniston, Sharqdan turkman o'lkasi ham Xeva dashti bilan chegaradosh.

Buxoro aholisi uch yarim million nafardan iborat. Uning maydoni 225 000 km² keladi, ya'ni taxminan Italiya maydoni bilan teng. Uning aholisinnng asosiy qismi o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq, tojik, yaxudiy va arablardan iborat. Buxoroning g'arbiy qismi, xususan, Amudaryo sohillaridan tashqari joylari ekin ekishga va dehqonchilik qilishga qobil emas. Aksincha daryoga yaqin joylar ancha serhosil yerlardir. Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Kofirnahang va G'iyshlar tevaragida dehqonchilik qilishadi.

Qadimiy madaniy yodgorliklar mavjud shaharlar, chunonchi, Qarshi, Kitob (Kifti ob), Shahrisabz, G'uzor, Buxoro, Ziyouddin, Karmana, Chahorjo'y, Karki, Boysun, Qoratog', Ko'lob, Boljuvon, Sherobod, Hisor, Dushanba, Fayzobod va boshqalari hanzur mashhur va ma'lumdir.

Buxoroning sharqiy qismini ulug' tog'lar o'rab turadiki, ular dunyoning eng baland tog'laridir Xisor tog'larini o'rab olgan qanchadan qancha cho'qqilari borki, undaylar juda oz bo'lib, ularning balandligi besh ming besh yuz metr ga yetadi. Bir-biriga zanjir bo'lib ulangan yerlari to olti ming bir yuz metr ga yetadi. Jumladan, Darvoz tog'lari to Pomir dashtigacha cho'ziladi. Buxoroda, ya'ni Markaziy Osiyo mamlakatlarining eng qadimgilaridan biri bo'lib, bunda navbatma-navbat shahzodalar saltanat qurganlar. Buxoro poytaxti[33] milodiy tarixdan necha asr avval bino bo'lgan. Uning xalqi turklar tasarrufidan avval oriyoniy irqidan edilar. Hijriyning yettinchi va sakkizinchi asrlaridan, ya'ni arablar xukmronligi davrida Buxoro shahzodalari Buxoro xonlari saltanat surar edi, Bu shahar mashhur somoniylar sulolasining markaziga aylangan edi. Somoniylar sulolasinint asoschisi Ismoil Somoniy (892-908) vaqtda Buxoroni Samarqanddan afzal ko'rganidan, uning ahamiyati kundan-kunga orta bordi. Uninchi asr, ya'ni somoniylar saltanati davrida Buxoro ulug'vor va buyuklikka erishdi. San'at, savdo-sotiq va turli-tuman fanlar rivojlandi. Somoniy podshohlarining so'nggisi vafotidan keyin (1005) Buxoro ikki marta turk va saljuqlar sulolasining qo'lga tushdi. Undan so'ng Chingiz va Temurlang, keyin shayboniylar va Ashtarxoniyalar[34] sulolasi, o'zbek mang'itlar toifasi Buxoroda hukm surdilar. Mang'it toifasi 1783 yildan to 1920 yilgacha Buxoroda saltanat qildilagr. Nihoyat bolKjsheviklar xukumatining jabr va siquvi bilan Amir Olimxon Buxorodan ko'chishga majbur bo'ldi.

Buxoroning siyosiy va idoriy tashkilotlari

Garchi Buxoro mamlakati Rusiya davlati ximoyasida bo'lgan bo'lsa-da, lekin u o'zining qadimgi mustaqilligini saqlab qolgan edi.

Buxoro amirlari hukm yuritishlarida shariat usul va odatlariga rioya qilar edilar.

Buxoroning islom ulamolari amirni payg'ambar xalifasi o'rinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilardi.

Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos bo'lardi, uni buzishi mumkin emas edi.

Buxoro xonlari butunlay mang'itlarning o'zbek toifasidan bo'lgan.

Buxoro podshohlarining mo'g'il[35] odatlariga ko'ra, to'shakcha[36] ustiga tabarrukona o'tqazilib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar uni yerdan ko'taradilar.

Buxoro mamlakati yigirma sakkiz beklikka bo'lingan edi. Shu qarorga muvofiq Nurota, Qorako'l, Qaboqli, Chaxorjo'y, Karki, Burdolik, Kalif, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, G'uzor, Qarotegin, Boysun, Hisor, Dexnav, Qo'rg'on (tepa), Boljuvon, Ko'lob, Qabodiyon, Darvoz, Ruvshon bekliklari va mirliklariga bo'linib, bu vazifalar qadim-qadim ayyomlardan buyon irsiy, ya'ni meros bo'lib qolardi. Biroq Amir Sayyid Olimxon zamoniga kelib saylash usuliga o'tildi.

Buxoronning siyosiy va idoriy ishlari esa Qushbegi deb atalgan bir kishi raisligi qo'l ostida idora qilinardi.

Mamlakatning moliyaviy ishlari devonbegi qo'l osti va nazorati ostida amalga oshirilardi.

Diniy masalalar, qozilik ishlari, umumiy ta'limot masalalari bilan shug'ullanish qoziyul-quzzot - qozilar qozisining burchiga kirardi.

Askariy ishlar esa to'pchiboshi rahbarligida o'tar edi. Uning vazifa darajalari ushbular qaroridan kelib chiqadi: Qushbegi, devonbegi, parvonachi, inok, dodhobiy, to'qsoba[37]. Uchinchi Iskandar (Iskandar solis) nishoni eng muhim nishonlardan biri edi. Buxoro amiri u bilan mansabdor kishilarni va harbiy ofitserlarni mukofotlardir. Quvvayi qazo'iya-mamlakat taqdirini hal qilish masalasi - amirning o'z qo'lida edi. Bu Qur'on xukmlari va islom shiati qonunlari asosida yuritiladi.

1868 yilda Buxoro bilan Rusiya o'rtasidagi tuzilgan qarorga binoan Rusiya fuqarolari Buxoro amirligiga soliq to'lashdan ozod edi, lekin ular Buxoro bozorlarida o'zlarining tijoriy mollarini sotganlarida sotilganning yuzdan ikki yarim foizinn Buxoro hukumatiga berishlari shart edi.

Buxoronning tabiiy boyliklari: tillo, kumush, qo'rg'oshin, mis, temirlar Buxoroda ko'p miqdorda topiladi. Xususan Sharqiy qismlarda ma'danlar borki, ular to shu mahalgacha ishlab chiqilmagan. Tabiiy boyliklar ichida neft, ko'mir, gugurt, nashatirlar bor. Savdo-sotiq ishida teri, yung, shoyi gilamlar - mamlakatning tashqariga chiqaradigan asosiy mollarini tashkil etadi.

Buxoro mevalari dunyoga mashhurdir. Buxoro otlari, xususan, qorabayir navi 1914 yilgi urushda ahamiyat qozonib, yaxshiligini isbotladi.

Buxoro amiri qanchadan-qancha ming bosh otni Rusiya davlatiga berdi. Har xil fasllarda tog'u chamanzorlar rang-barang bo'lganidan qo'y, echki, ot va tuya suruvlari o'z o'tloqlarida miriqib o'tlab yurishadi.

Buxoroning asosiy savdosi Rusiya, Eron, Afg'oniston mamlakatlari bilan bo'ladi.

BolKjsheviklar inqilobidan oldin Buxoro savdosi faqat Rusiyaning o'zi bilan ikki yuz ellik million frankka yetar edi. Lekin baxtga qarshi yuklarni eltish vositalarining bo'lmasligidan savdo ishining rivojlanishiga katta to'sqinlik paydo bo'ldi.

Vaholanki, qanchadan-qancha temir yo'l vositalari mamlakatning boshidan oyog'igacha cho'zilgan edi.

BolKjsheviklarning Buxoroga xamlasi: 1917 yil fevralKj inqilobidan so'ng bolKjsheviklar o'zlarining yomon niyatda bo'lgan ilk qadamdarini targ'ibot va tashviqot yo'llari bilan boshlab yubordilar. Ichkaridagi majaroparast unsurlar bilan hangoma talab unsurlar bir-birlari bilan til biriktirib bolKjsheviklar bilan hamkorlik qilishdi. Ular xukumat uchun ko'p qiypnchiliklar tug'dirdi.

1918 yilning o'ninchi martida bolKjsheviklar Buhoroga hamla qilib, Ziyouddinni egallab oldilar. Shundanki, Buxoro aholisi haqiqatni bukib yuboradigan tarzda bo'layotgan bolKjsheviklarnpng bu oyoq olishlarini mushoxada qilishardi.

Afg'oniston chegarasida bo'lgan barcha rus askarlarini o'ldirdilar, oz-ozdan, bo'lsayam inqilob olovi boshdan-oyoq mamlakat bo'ylab alangalana boshladi, natijada bolKjsheviklarning qo'mondoni Kolesov majbur bo'lib, 1918 yil yigirma beshinchi martda amir bilan sulh tuzishga qaror qildi.

Lekin baxtga qarshi bolKjsheviklar o'zlarining pastkashlik ishlaridan qo'l tortmadilar, 1920 yil beshinchi sentyabrda Vuxoroyi sharif bolKjshevik askarlari qo'lga tushdi.

Ota-bobolari 1783 yildan boshlab saltanat surgan Amir Sayyid Olimxon Buxoroda hukm suraturib bir oz kishi bilan Afg'onistonga qochib ketdi; qizil askarlar bo'lsa odamlarni behonumon qildi. Zulm qo'lini uzun qilib, mamlakatni boshdan-oyoq g'orat qilib taladilar, buning natijasida, nihoyat, ellik ming nafarga yaqin odamlar bexonumon bo'ldilar. Shundayki, 1921 yili bolKjsheviklar yetkazgan zulm va bedodliklar avjiga minib, axolining barchasi bira to'lasiga ko'tarildi, mamlakatda qattiq bir inqilob yuzaga keldi.

Ibrohimbek ko'p sheryurak askarlar to'pladi, qizil askarlar bilan qonli janglar qildi va nihoyat, oxir-oqibatda bolKjsheviklar bilan yetti yil kurashgandan so'ng Buxoroda bir qur muvaqqat xukumat tashkil xam qila oldi.

Bugunga kelib, bolKjsheviklar shunday sa'y-harakat qilyaptilarki, xalqning milliy iftixorlarini odatlardan, hatto axloq, odob, din va mazxabdan, oila va jamiyatdan chiqarib tashlashga, ularni yo'qqa chiqarishga urinyaptilar. Aholining yuqori tabaqasidan tortib to quyisigacha bo'lgan xamma toifasi Amir Sayyid Olimxonni sevardilar, uning yurtga qaytishini orzu qilardilar. Qizil xukumat avval bo'lgan barcha tashkilot-tuzumlarga barxam berdi. Mamlakatni bir qancha sovet jumhurmyatlariga, chunonchi, O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqolpog'iston kabilarga bo'lib yubordilar. Buxoroyi sharif shahri, ya'ni Markaziy Osiyoning Makkasi bo'lgan shaharni Sovet O'zbekistonning bir viloyati etib qo'yishdi. Amir xonadoni esa 1922 yilda o'z yurtidan uzoqlashtirildi, uning uch nafar o'g'illari Moskvaga yuborildi.

Birlashgan Millatlar ta'sisidan asli maqsad zaif millat va zulm ko'rganlar huquqini himoya qilish ekan, Buxoro Amiri kuvonch bilan orzu qiladiki, yuqorida zikr etilgan anjuman bu afsusnok vaziyatga o'z lutf-tavajjuhini qaratib, mamlakatni va bu yerda yashayotgan fuqarolarning xotirjamligini ta'minlab, Osiyoning bu mintaqasida tinchlikni barqaror qiladi, deb ishonadi.

Uchinchi fasl

Buxoro amirlarining tirikchilik tarixi

Sayyid Amir Muzaffarxon o'g'li Sayyid Amir Abdulahadxon 1859 yili Buxoroda tug'ildi. U kishi yigitlikning dastlabki kezlarida mamlakatda islohot o'tkazishga o'ta mayl paydo qilgan edi. 1883 yili uchinchi Aleksandrning taxtga o'tirishi tantanasida ishtirok etish uchun Moskvaga boradi.

Yangiliklarga qadam qo'yish, temir yo'l, telegraf va boshqa narsalarni qurish xususida tajriba orttirish kabi ishlar u kishini xos kishilar va omma o'rtasida shuxratini yana ham oshirib yuborgan edi. Shunday qilib, Rusiya bilan do'stlik iplarini mustaxkamlash uchun hukumatdan bir narsani - Buxoroda Rusiyanpng bir siyosiy sho"bosi ta'sis etilishini istab qolishdi. Nihoyat yigirma olti yil puriftixor saltanat surib, 1911 yilning fevral oyida ellik uch yoshida Amir Sayyid Muzaffarxon bu foni dunyo bilan vidolashdi. Amir Sayyid Olimxon: hijriy yilining 1298-si muxarram oyi o'n beshida, milodiy yil aylanishiga ko'ra, 1881 yilda Karminada tug'ildi. So'ngra boshlang'ich tahsilni tamom qilgach, o'n uch yoshligida harbiy fanlardan ta'lim olish maqsadida padari buzrukvori buyrug'i bilan Moskvaga boradi. O'n yetti yoshga to'lgan chog'idan to otasi vafot etib, saltanat taxtiga o'tirganga qadar Qarshi viloyatida hukm yuritdi.

Amir Sayyid Olimxon saltanatga o'tirgan chog'idan to'qqiz yil fuqaroparvar, adolatparvar hukm yuritib, bolKjsheviklarning qonli hamla va xujumidan so'ng, axiyri 1921 yil aprelKj oyida Afg'onistonga ko'chishga majbur bo'ldi.

General Hoji Yusuf Muqimboy esdaliklari: so'zni tugatishdan oldin shularni aytishni lozim ko'ramanki, oliyxazrat Buxoro amirining Jenevada bo'lgan shikoyatidan so'ng uning nomini xurmat-extirom va samimiyat bilan esladilar. Fransiya, Italiya, Germaniya, Angliya va Eron vakillari bu favqulodda kishiga nisbatan hurmat-ehtiromda bo'ldilar. Bu safarim natijalarini Amir oliyxazratlari xuzuriga kelib izxor qildim.

Oliyxazrat Amir o'z navbatida Millatlar Ittifoqi hay'atida inson qadri va huquqining qadriga yetishidan ikkinchi marta meni Ovrupoga ravona bo'lishga buyurdilar. U kishi ba'zi buyuk davlatlar boshliqlari nomiga men orqali maktub yo'lladilar. Shu bilan men o'z vazifamni me'yoriga yetkazib bajarish baxtiga muyassar bo'ldim.

Shunday qilib men olam musulmonlariga quyidagilarni ma'lum qilmoqchiman: ular baxti ketgan bu xalq va uning podshohining bu boradagi kechmishlaridan ogox bo'lsalar.

Bu esdaliklarni o'qigan o'quvchilardan yana shu narsalarni orzu etaman: Shoyad ular bizning bu muqaddas burchimizni bajo keltirishimizga bizga ko'mak berishsa va Rusiya bolKjsheviklarpning bizga nisbatan qilaetgan barcha tuxmat va bo'xtonlarini xaqiqatdan xoli ekanligini bilib olishsa.

General Xoji Yusuf Muqimboy.

Tarjimondan

O'zbekiston SSJ Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik insitutining katta ilmiy xodimi, do'stimiz va ishdoshimiz Shohniyoz Muso o'g'illari bir pecha yil Afg'oniston diyorida bo'lib vatanga qaytganlar. U kishi munosabat topib oilasi va do'stlari bilan birga 1973 yil iyulKj oyida Amir Olimxonning qabrlarini ziyorat qilganlar. Hikoya qilishlaricha, amirning maqbarasi Qobul shahri tevaragidagi "Shahidoni islom" ("Islom shahidlari") qabristonida bo'lib, qabr toshiga ushbu so'zlar bitilgan ekan:

"Bu qabr sohibi alam-sitamga to'la amir bo'lmish va saltanat surmish zoti oliyning bir kaft tuprog'idan xotira bo'lib, bu kishi Buxoroyi sharifdagi mang'itlar sulolasining yettinchi va oxirgi saodatpanoh podshohlaridan edilar. Ya'ni bu janob Allohning mag'firatiga sazovor bo'lgan Amir Sayyid Olimxon ibn marhum Amir Sayyid Abdulahadxon ibn Amir Muzaffarxon ibn Amir Sayyid Nasrullaxon ibn Amir Haydarxon ibn Amir Shohmurod - bu kishi ma'sum G'oziy laqabi bilan ham mashhur - ibn Amir Doniyolxondurlar. Bul marhumning Buxoroyi sharifda amirlik saltanatining o'ninchi yilida rus kofirlari tomonidan Buxoroyi sharif bosqinchilik bilan istilo qilingach, fisabililloh muhojir sifatida qo'shni yurt bo'lgan Afg'onistonda panox topgan edilar. Oradan yigirma uch yil o'tgach, 64 yil umr ko'rib, bu islom mamlakati yerida 1323 shamsiy yili savrning beshinchi shanbasi kuni va hijriy qamariyga muvofiq 1363 yili jumodil avval oyining beshinchisida (1944 yil 28 aprelKj kuni) bu foni dunyodan ko'z

yumdilar.

Yigirma uch yildan beri ul zoti oliy mana shu tuproqda yotibdurlar".

Hayoti va faoliyati yillari

1881 - Buxoroda mang'it o'zbeklari sulolasidan bo'lmish Amir Olimxon Karminada tug'ildi.

1893 - 1896 yillar Amir Olimxon Peterburgda o'qiydi.

1896 - Amir Olimxon Peterburgdan Buxoroga qaytadi.

1898 - Amir Olimxon Nasaf viloyatiga xukmron etib tayinlanadi.

1910 - Amir Olimxon Karmina voliyasi.

1911 - Amir Olimxon Buxoro mamlakati taxtiga o'tiradi.

1921 - yili Amir Olimxon Afg'onistonga ko'chadi.

1944 - yili Amir Olimxon Qobilda vafot etadi.

† Kitobda muallif kamtarlik va odob yuzasidan o'z nomini kam ishlatadi va barcha joyda "men" deyish o'rniga "bu banda" deb yozadi. Biz ham sharq uslubidagi bu shaklni saqlab kolish maqsadida hamma yerda uning uslubidagidek qilib "banda" deb oldik. Sharhlar tarjimonniki.

† Nasaf - hozirgi O'zbekiston jumhuriyatidagi Qarshi shahrining qadimgi nomi. Tarixda bu shahardan ko'plab buyuk siymolar yetishgan.

† Matnda tosh va ohakdan deb yozilgan.

† Karmina - bu nom hozir ham shunday saqlangan, ba'zan Karmana sifatida ishlatiladi. Xo'rok esa hozir ham shunday.

† Rixlat etish - narigi dunyoga ko'chish, ya'ni vafot etish ma'nosida.

† Kerenskiy Aleksandr Fedorovich (1881 Ъ”1970) - rus siyosiy va davlat arbobi, oqlovchi. 1917 yili vaqtli hukumat raisi.

† Preobrajenskiy - bu, Aleksandr GrigorKjevich (1850Ъ”1918)mi yo boshqa shaxsmi, aniqlanmadi.

† Chahorjo'y - hozirgi Chorjo'y.

† Fayzulla Xo'jaev (1896Ъ”1938) - Partiya va davlat arbobi. O'rta Osiyoda sovet hokimiyati uchun kurashgan, 1920 yildan Buxoro revkomining a'zosi, xalq nozirlar kengashining raisi, 1922 yildan Markaziy Komitetning O'rta Osiyo byurosining a'zosi, 1925 yildan O'zbekiston SSR xalq komissarlar kengashining raisi, SSSR Markaziy ijroiya komitetining raislaridan biri.

† Kolesov Fedor Ivanovich (1885Ъ”1940) O'rta Osiyoda sovet hokimiyati uchun kurashgan bolKjsheviklardan, 1917Ъ”18 yillari Turkiston muxtor jumxuriyati xalq komissarlari kengashining raisi.

† Eliava Shalva Zurabovich (1883Ъ”1937) - sovet davlat arbobi. U Vologda, O'rta Osiyo va Kavkazda sovet xokimiyati o'rnatish uchun kurashgan, 1927 yildan Zakavkaziya xalq komissarlar kengashining raisi vazifasida ishlagan va shu yili SSSR Markaziy ijroiya qo'mitasi prezidiumining a'zosi bo'lgan.

† AkselKjrod Pavel Borisovich (1850Ъ”1928) - revolyutsion harakatlarda ishtirok etgan siyosiy arbob, 1917 yili Petrograd sovetining a'zosi, bu yerda yozilganlarga ko'ra, u sovetlarning Buxorodagi elchisi ham bo'lgan. OktyabrKj inqilobidan so'ng chet elga ketib, Germaniyada vafot etgan.

† Hammazxab - Afg'oniston va O'rta Osiyo xalqlari sunniylardan bo'lgan, deyilmoqchi.

† Baranov Pyotr Ivanovich (1892Ъ”1933) - sovet harbiy arbobi, Turkiston frontida hamda boshqa joylarda inqilobiy harbiy kengash a'zosi.

† Matnda "re", "yoy", "lom" yozilgan. Bu, Rel (rels) - temir yo'l izi.

† Mil - 4000 tirsak, ikki km.

† Bu yerda amir Olimxon Buxoroni tark etishini xuddi payg'ambarning Makkani tark etishga majbur bo'lib, Madinaga ko'chganiga qiyos qilayapti. Payg'ambar ham shunday qiyin ahvolda Makkani tashlab chiqib ketgan edi.

† Amirning yozgi dam olish joyi.

† Farsah - bir farsax, uch mil, ya'ni o'n ikki ming metr.

† Mirshikor - Mir, amirning kishqargani, ya'ni kishini ulug'lab aytiladigan sifat, shikor - ov, ya'ni mirshikor - amiri shikor, ov amiri.

This is not registered version of TotalDocConverter

Б† Matnda: mujohidon; mujohidlar - payg'ambar davrida islom dini uchun kurashgan fidoiylarga nisbatan ishlatilgan so'z. Jixod - muqaddas urushga kirishish ma'nosida. Bu yerda ham vatan uchun muqaddas urushga kirishish nazarda tutib aytilyapti.

Б† Anvar Poshsho (1881 - 1922) - turk siyosiy va davlat arbobi, generallaridan biri, umrining so'nggi yillarida O'rta Osiyoga, xususan, Buxoroga kelib, birmuncha faoliyat ko'rsatdi. U shu yerda bo'lgan janglarda halok bo'ldi.

Б† ya'ni Ibrohimbek.

Б† Turk sultoni Muhammad beshinchi Rashodxon (hukmronligi 1909БЂ”1918 yillar orasi).

Б† DehБЂ”qishloq, nav - yangi ma'nosida, Dehnav - yangi qishloq degani. Hozirgi Denov.

Б† Bu balki hozirgi G'uzordir.

Б† Buxoro davlatining harbiy vaziri.

Б† Sayxun - (Sirdaryo, bu bilan muallif qattiq jang bo'lganligini va qonlar daryoday oqqanini aytmoqchi bo'lsa kerak.

Б† Matnda Shofrikom bitilgan. Hatto kotib "M" harfi o'rniga avval "N" yozgan ekan, uni o'chirib "M" ga tuzatibdi.

Б† Tuman - O'lka, viloyat ma'nosida.

Б† Forsiyda bitilgan bu bayt keyingi asrlarda bitilgan ko'p qo'lyozma kitoblarda uchraydi. Kitobni shunday bayt bilan tugatish bir odat bo'lgan bo'lsa kerak, amir xam o'zidan oldin va o'z davrida uchragan uslubda bu baytni keltiradi.

Б† Ya'ni muallif Buxoro shahrining o'zini nazarda tutyapti. Chunki umuman Buxoro davlati deganda keng ma'noda mamlakat nazarda tutiladi.

Б† Matnda Astraxoniy kelgan.

Б† Bu mo'ng'ul emas, balki mo'g'il. Mo'g'il aslida turkiy qabilalaridan sanaladi. Shu jixatdan Boburning Hindiston shimolida qurgan "buyuk mo'g'illar imperiyasi" deb atalgan, bu noto'g'ri ravishda ba'zan "buyuk mongollar" deb ham yozilyapti.

Б† To'shakcha odatda ok kigizdan tayyorlangan.

Б† To'qsoba - bu adliya ishlari yoki hozirgi ichki ishlar kabi bo'lsa kerak.